

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING SHAXSIYATI VA IJOD  
UYG‘UNLIGI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qtuvchisi*

***Boyto‘rayev Sirojiddin Usmon o‘g‘li***

[\*s.boyutrayerov@dtpi.uz\*](mailto:s.boyutrayerov@dtpi.uz)

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

***Yusupova Muxlisa Nurali qizi***

[\*muxlisayusupova810@gmail.com\*](mailto:muxlisayusupova810@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolamiz orqali sizlarni buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muxammad Boburning shaxsiyati hamda ijodiyotiga e‘tiboringizni qaratmoqchimiz. Zahiriddin Muhammad Bobur — nafaqat o‘zbek balki butun turkiy xalqlarning buyuk tarixiy shaxsi, yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, iste‘dodli yozuvchi, shoir va chuqur tafakkur egasi bo‘lgan ma‘rifatparvar zotdir. Alloma Amir Temurning avlodi sifatida o‘z zamonasida siyosiy beqarorliklarga qaramay, jasorat, aql-zakovat va qat‘iyat bilan katta davlat asos solishga muvaffaq bo‘lgan zotdir. Quyida bu masalalarga chuqurroq kirishga harakat qilamiz.*

**Kalit so‘zlar.** *Temuriyzoda, Movarounnahr, Andijon, shoh va shoir, Boburnoma, Mubayyin, Topmadim, Tanlangan asarlar.*

**Аннотация.** *Через эту статью мы хотим обратить ваше внимание на личность и творчество великого предка Захириддина Мухаммада Бабур. Захириддин Мухаммад Бабур — великий исторический деятель не только узбекского, но и всех тюркских народов, крупный государственный деятель, талантливый полководец, одарённый писатель, поэт и просветитель с глубоким мышлением. Как потомок великого Амира Темура, несмотря на политическую нестабильность своего времени, он сумел благодаря мужеству, уму и решительности основать великое государство. Ниже мы постараемся более подробно рассмотреть эти вопросы.*

**Ключевые слова.** *Темурид, Мавераннахр, Андижан, царь и поэт, Бабурнаме, Мубаййин, Не нашёл, Избранные произведения*

**Annotation.** *Through this article, we aim to draw your attention to the personality and creative legacy of our great ancestor, Zahiriddin Muhammad Babur. Zahiriddin Muhammad Babur was a prominent historical figure not only for the Uzbek people but for all Turkic nations — a significant statesman, skilled military leader, talented writer, poet, and an enlightened thinker. As a descendant of the great Amir Temur, he managed to establish a powerful state despite the political instability of his time, showing courage, intelligence, and determination. Below, we will delve deeper into these topics.*

**(3rd international scientific and practical conference)**

**Keywords.** *Descendant of Timur, Transoxiana, Andijan, king and poet, Baburnama, Mubayyin, I did not find, Selected works*

**Kirish.** Bobur (taxallusi) to‘liq ismi - Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo. U (1483-yil 14-fevralda tug‘ilgan, 1530-yil 26-dekabrda vafot etgan) — o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik siymosi, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda va boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh bo‘lgan. Amir Temurning pannevarasi bo‘lgan. Bobur o‘z davrining eng mukammal buyuk shaxslaridan biri edi. Uning she‘rlari, ruboiylari o‘z vaqtida va hozir ham sevib mutolaa qilinmoqda. 6 ta zavjasi bo‘lib, Bibi Muboraka, Mohimbegim, Zaynab Sulton Begim, Oysha Sulton Begim, Ma’suma Sulton Begim va Soliha Sulton Begim. Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat shoh, yirik sarkarda va davlat arbobi, balki o‘z zamonasining yuksak madaniyati va adabiyotini mujassam etgan nodir shaxslardan biridir. U o‘zining boy hayotiy tajribasi, buyuk sarkardalik xususiyati, chuqur tafakkuri va nozik qalbi bilan tarixda chuqur iz qoldirgan. Bobur shaxsiyat va ijod uyg‘unligini mujassam etgan siymo sifatida, bugungi avlod uchun ham ibrat manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Bobur shaxsiyati — tafakkur va jasorat uyg‘unligidir[1]. Bobur Temuriylar sulolasining vakili sifatida yoshligidan siyosiy hayotga sho‘ng‘idi. Boburning onasi o‘qimishli bo‘lgan va oqila ayol bo‘lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko‘mak bergan, harbiy yurishlarida o‘z maslahatlari bilan unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo‘yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o‘tkazardi. Boburning yoshligi ona yurti Andijonda o‘tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi bilimli maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida siyosiy va harbiy ta’lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she‘riyatga qiziq boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan xalq orasida „Bobur“ („Sher“) laqabini oladi. Chunonchi, bundan kelib chiqadi-ke Bobur Temuriyzodalar ichida eng mashhur siymolardan hisoblangan[2]. Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur so‘fiy – Xoja Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi. Umrining oxiriga qadar shu e’tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, „Boburnoma“ asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizlikdan xalos etganini, eng og‘ir sharoitlarda qo‘llab-quvvatlab, rahnamolik qilganligini ta’kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur Farg‘ona taxtiga o‘tirgan va umrining katta qismini siyosiy kurashlar, yurishlar, taxt uchun janglar bilan o‘tkazgan. Bobur shu yo‘sinda yoshlik chog‘idan siyosiy hayotga kirib kelishga majbur bo‘ldi. U taxtadan yasalgan o‘yinchoq qilichini tashlab, haqiqiy qilich bilan urush maydoniga chiqdi. Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2—3-yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o‘zaro munosabatni

(3rd international scientific and practical conference)

yaxshilash, qo‘shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o‘rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shunga qaramay, uning shaxsiyati faqat sarkardalik bilan emas, balki chuqur tafakkur, o‘tkir zehin, ziyolilik, o‘ziga va xalqiga sadoqat bilan ajralib turadi. Bobur halollik, odillik, adolat va ochiqko‘ngillilikni qadrlagan. U “Boburnoma”da o‘z kamchiliklarini ham yashirmasdan, rostgo‘y tarzda bayon etadi. Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida mutassil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503-yil Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo‘yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oldi. 1501–1504-yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504-yil iyun) majbur bo‘ladi. Xususan xalqning tinka madorining qurishi, sabr kosasining to‘lishi, hokimiyatni qo‘llamasligi, ko‘rib turganimizdek Boburning chekinishiga, hatto o‘z ona yurtidan bosh olib ketishiga sabab bo‘ldi. Demak, bundan ko‘rinadiki oddiy xalqning qo‘llamasligi har qanday kuchli hukmdorni ham inqirozga yuz tutishiga olib keladi. Bobur 200-300 kishilik navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azna va Kobulni egallaydi. 1525-yilda Bobur 12 ming qo‘shin bilan Hindistonga yurish boshladi. 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi[3].

**Asosiy qism.** Shaxs sifatida Bobur g‘ururli, lekin kibrdan yiroq, jangovar, lekin adolatparvar, hukmdor, lekin she‘riyat va san‘atga oshno inson bo‘lgan. Boburning ijodi — yurakdan to‘kilgan satrlar o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandalaridan biri sifatida o‘zining she‘riy merosi bilan ham tarixda qolgan. Boburning o‘z guvohligiga ko‘ra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan; „Ul fursatlarda birorikkirar bayt aytur edim“, deb yozadi. U aruz vaznida yozilgan turkiy (chig‘atoy) va forsiy she‘rlar orqali o‘zining ichki kechinmalari, tuyg‘ulari, tabiatga va insoniylikka bo‘lgan mehrini ifoda etgan. Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan. Uning „Topmadim“ radifli g‘azali va „Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi“ misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o‘sha yillardagi hayoti bilan bog‘liq. Boburning she‘rlarida muhabbat, do‘stlik, g‘amginlik, hayot falsafasi, tabiat manzaralari keng o‘rin olgan. Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she‘ri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit‘alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Boburning eng mashhur asarlariga „Boburnoma“, „Mubayyin“, „Tanlangan asarlar“, „Maxrami asror topmadim“, „Nazr

**(3rd international scientific and practical conference)**

durdonalari" shular jumlasidandir. Uning lirikasi samimiy va hayotiy bo‘lib, har bir satrida qalb ohangi seziladi. Shoir sifatida u Navoiy maktabining izdoshi bo‘lib, lekin o‘z uslubiga ham ega edi. Allomaning bir qator she‘riy, lirik, tarixiy asarlari mavjud. Ular tarixchilar tomonidan „Tirik tarix" deb ham e‘tirof etiladi. Keling endi bir nechta asarlarning tahlili bilan tanishamiz.

“Boburnoma” —asari o‘z davrining tirik hujjati. Boburning eng muhim adabiy meroslaridan biri hisoblanadi. Bu asar tarixiy xotiralar, kundaliklar, geografik tavsiflar, ijtimoiy hayotning tafsilotlari bilan boyitilgan bo‘lib, o‘zbek nasri rivojida yuksak cho‘qqi hisoblanadi. “Boburnoma”da faqat tarix emas, balki Boburning dunyoqarashi, kuzatuvchanligi, o‘tkir aqli va qalam qudrati ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Undagi tabiat tasvirlari, inson obrazlari, shaxsiy hayotiga oid tafsilotlar bugungi o‘quvchini ham befarq qoldirmaydi. „Boburnoma“ning 1518—1519-yillar voqealari bayoniga bag‘ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Bu asarning yana bir muhimligi shundaki, asarni Bobur o‘z qalami bilan yozgan bo‘lib, muallif asarda o‘z hayotini yoritgan. Hech bir hukmdor o‘z hayoti haqida ochiqdan-ochiq haqiqatni yozdirmagan. Ammo Bobur o‘z hayoti haqida borini va barini yashirmasdan yozib qoldirgani taqsimga sazovordir[4]. Allomamiz 1521-yil Hindistonga yurishlari davrida „Mubayyin“ asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturul-amal sifatida mo‘ljallangan „Mubayyin“da, ayni zamonaga tegishli, namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar‘iy mezonlar bayon qilingan[5]. Boburning „Tanlangan asarlar" deb noma olgan she‘riy asarlar to‘plami ham kitobxonlar orasida juda ham mashhurdir. Bu to‘plamda barcha asarlar she‘riy ko‘rinishda bayon etilgan. Boburning ushbu asarini g‘azallar, tuyuqlar, qit‘alar, fardlar o‘z ichiga oladi. Bunda muallif o‘z ichki kechinmalarini juda ham ustalik bilan zarhal harflarda bayon qilgan[6].

**Xulosa:** Bobur merosi — bugungi avlod uchun bebaho topilma hamda hayotiy saboq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoir vatandan qanchalik uzoq bo‘lsada, yurtini sevib, pinhona qalamga oladi. Boburni vatanparvar, mard, jasur siymo timsolida o‘z milliy qahramonimiz desak to‘g‘ri bo‘ladi albatta. Bobur o‘z shaxsiyati va ijodi bilan o‘zbek adabiyoti, madaniyati va tarixida alohida o‘rin egallaydi. U yozuvchi, shoir, ijodkor sifatida qalbini ochib bergan, shaxsiyat sifatida esa ibratli yo‘l tutgan. Bugungi kunda allomamizning asarlarini o‘rganish, tahlil qilish, qadrlash va yoshlarga yetkazish — nafaqat madaniy vazifa, balki ma’naviy qarz dirmiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Bobur. Asarlar. Uch jildlik.-Toshkent : Fan, 1965-66;
2. Bobur. Muxtasar. Toshkent, 1971
3. Bobur. „ Boburnoma,, O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti - Toshkent 1960.
4. Bobur. Boburnoma. -Toshkent : 1960, 1989;
5. Bobur. Mubayyin. — Toshkent: 2001.
6. Bobur. Tanlangan asarlar. -Toshkent : 1958;

